



NAMANGAN VILOYATI MINGBULOQ TUMANI HOKIMINING QARORI

2025-yil 5-mart

110-6-81-Q/25

Mingbuloq tumani hokimligi

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Oliy ta’lim tashkilotlari bitiruvchilarining ishga joylashishiga ko‘maklashish bo‘yicha qo‘shimcha chora- tadbirlar to‘g‘risida” 2025-yil 14-fevraldagi PQ–61-sonli qarori ijrosi haqida”gi viloyat hokimining 2025-yil 28-fevraldagi 106-6-0-Q/25-sonli qarori ijrosi to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Oliy ta’lim tashkilotlari bitiruvchilarining ishga joylashishiga ko‘maklashish bo‘yicha qo‘shimcha chora- tadbirlar to‘g‘risida” 2025-yil 14-fevraldagi PQ–61-sonli qarorini, viloyat hokimining 2025-yil 28-fevraldagi 106-6-0-Q/25-sonli qarorini ijrosini tumanda ta’minlash maqsadida, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6- va 21¹-moddalariga asosan,

QAROR QILAMAN:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Oliy ta’lim tashkilotlari bitiruvchilarining ishga joylashishiga ko‘maklashish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2025-yil 14-fevraldagi PQ–61-son qarori ijrosi haqida Namangan viloyati hokimining 2025-yil 28-fevraldagi 106-6-0-Q/25–sonli qarori rahbarlik va amalda ijrosini ta’minlash uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ–61-son qarori bilan:

Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi va “O‘zmilliybank” AJning oliy ta’lim tashkilotlarining bitiruvchilarining ishga joylashtirishiga ko‘maklashishga qaratilgan quyidagilarni nazarda tutuvchi “Kelajakka qadam” dasturini (keyingi o‘rinlarda Dastur) amalga oshirish to‘g‘risidagi taklifiga rozilik berilganligi;

a) o‘z biznes g‘oyalarini amalga oshirish istagi bo‘lgan oliy ta’lim tashkilotlarining bitiruvchi bosqich talabalari uchun “O‘zmilliybank” AJ tomonidan biznes g‘oyani tayyor loyihagacha olib borish jarayonida to‘liq hamrohlik qilish, shu jumladan, qulay shartlarda moliyalashtirishi;

b) oliy ta’lim tashkilotlarining bitiruvchi va quyi bosqich talabalari o‘rtasida sohalar bo‘yicha ochiq tanlovlar o‘tkazish va g‘oliblarni ish bilan ta’minlashga ko‘maklashishi.

Bunda;

salohiyatli ish beruvchi tashkilotlar, shu jumladan, yirik korxonalarning oliy ma’lumotli mutaxassislarga ehtiyojini aniqlash va mutaxassislarga qo‘yiladigan talablarni shakllantirish amaliyoti yo‘lga qo‘yilishi;

tanlov g'oliblarini salohiyatli ish beruvchi tashkilotlar buyurtmasiga ko'ra, individual kasbiy ta'lim dasturlari asosida kasbga dastlabki tayyorlash tadbirlari moliyalashtirilishi;

individual kasbiy ta'lim dasturlarida ishlab chiqarish obyektlarida amaliyot o'tash va chet eldagi oliy ta'lim tashkilotlarida qisqa muddatli o'quv kurslarida qatnashish imkoniyati yaratilishi;

belgilanishicha;

Dastur "O'zmilliybank" AJ tomonidan hududlarda, shu jumladan, autsorsing asosida tashkil etiladigan "Kelajakka qadam" markazlari (keyingi o'rinlarda Markazlar) orqali amalga oshirilishi;

barcha oliy ta'lim tashkilotlari Dastur ishtirokchilari hisoblanishi va talabalarni ishga joylashga ko'maklashish bo'yicha Markazlar bilan hamkorlik kelishuvlarini tuzishi;

Dasturni amalga oshirish maqsadida "O'zmilliybank" AJga Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasidan:

80 million AQSH dollari ekvivalenti miqdorida 10 yilga, shu jumladan, 3 yillik imtiyozli davri bilan Markaziy bankning asosiy stavkasiga teng foizda;

20 million AQSH dollari ekvivalenti miqdorida talabalarni kasbga tayyorlash va ularning kasbiy amaliyot o'tash xarajatlarini moliyalashtirish uchun beg'araz asosda mablag' ajratilishi;

Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi "O'zmilliybank" AJ bilan birgalikda:

bir oy muddatda Dasturni amalga oshirish bo'yicha uslubiy qo'llanmalar va Markazlar faoliyatini tashkil etish tartibini tasdiqlashi;

mazkur qarorning mazmun-mohiyatini barcha oliy ta'lim tashkilotlariga yetkazish, ish beruvchilar va talabalar orasida keng yoritish choralarini ko'rishi ma'lumot uchun qabul qilinsin;

3. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat tuman hokimining yoshlar siyosati, ijtimoiy rivojlantirish va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha o'rinbosari J.Raximov zimmasiga yuklansin.

Tuman hokimi



A.Mansurov